



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES



ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi • digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2025. Issue 1

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London , 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





MUHAMMAD YUSUF SHE'RLARIDA VATAN TASVIRI

Umarova Zilolaxon Ulmasboyevna

“University of economics and pedagogy” NOTM Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim kafedrası assistent-o‘qituvchisi,

Shavkatjonova Sanobarxon Ma‘mirjon qizi

Pedagogika fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Muhammad Yusuf ijodida Vatanga bo‘lgan muhabbat, milliy g‘urur, istiqlol ruhi va xalqona tafakkurning badiiy ifodasi tahlil qilinadi. Shoirning “ Vatanim!”, “Iqror”, “Izhorī dil” kabi she‘rlarida Vatan obrazining poetik ifodasi, uni yaratishda qo‘llanilgan badiiy vositalar va obrazlar tizimi o‘rganiladi. Maqolada shoirning Vatanga doir qarashlari nafaqat adabiy-estetik, balki ma‘naviy-ma‘rifiy jihatdan ham tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Vatan tasviri, milliy ruh, istiqlol, she‘riyat, badiiy ifoda, xalqparvarlik, obrazlar tizimi, poetika.

O‘zbek adabiyotida Vatan mavzusi doimo dolzarb bo‘lib kelgan. Ayniqsa, mustaqillik yillarida bu mavzuga bo‘lgan e‘tibor yanada kuchaydi. Shu davrda ijod qilgan shoirlar orasida Muhammad Yusuf alohida o‘rin egallaydi. Uning she‘rlari xalq qalbiga yaqin, sodda, obrazli va yurakka ta‘sirchan tarzda yozilgan bo‘lib, Vatanga bo‘lgan sadoqat, mehr va g‘urur bilan sug‘orilgan. Shoir o‘zining lirikasida Vatanni ona zamin, tarix, xalq va orzu-umidlar timsoli sifatida tasvirlaydi.

Muhammad Yusuf ijodining markaziy mavzularidan biri bu – Vatan. Uning she‘rlarida Vatan muayyan hudud emas, balki inson qalbiga yaqin, mehr va muhabbat manbai bo‘lgan timsol sifatida gavdalanadi. Shoir Vatanni shunchaki yurt emas, balki bola ko‘z ochgan beshik, xalq qalbiga singib ketgan tabarruk zamin sifatida tasvirlaydi.

Shoirning quyidagi misralari bu fikrimizga yaqqol dalildir:

Ko‘hna tol beshikdan

Boshlangan olam.

Senga iddaolar

Qilmay sevaman

Bir kuni singlim deb

Bir kuni onam –

Vatan

Kimligingni bilmay sevaman.

Ushbu she‘rda shoir Vatanga bo‘lgan muhabbatini shartsiz va manfaatdan xoli tarzda ifoda etadi. “Ko‘hna tol beshik” ramzi orqali inson hayoti boshlanadigan ilk makon – ona yurt tasvirlanadi. Beshik timsoli shoir





uchun faqat bolalik manzili emas, balki Vatanning o'zidir. Bu yerda Vatan shaxsiy hayot manbai, ruhiy kuch va tarixiy ildiz sifatida namoyon bo'ladi.

Shoir "Senga iddaolar qilmay sevaman" deya, Vatanni hech bir da'vo va manfaat ko'zlamay, sof qalb bilan sevishini bildiradi. Bu sevgi – shartga asoslanmagan, chin yurakdan otilib chiqqan samimiy tuyg'udir.

Muhammad Yusuf Vatanni goh singlisidek, goh onasidek tasvirleydi. Bu orqali u Vatanni inson hayotidagi eng muqaddas siymolar – opa-singil va ona obrazlari bilan tenglashtiradi. Aynan shu jihatlar shoirning Vatanni faqat fikran emas, yurak bilan anglashini ko'rsatadi. "Kimligingni bilmay sevaman" degan misra esa Vatanni siyosiy yoki geografik tushuncha emas, balki qalbning bir bo'lagi sifatida ko'rishni anglatadi.

Shoirning Vatanga bo'lgan muhabbati, uni otadek ulug', onadek mehribon timsol sifatida tasvirlashi quyidagi misralarda yanada teran ifoda topadi:

O, ota makonim.
Onajon o'lkam,
O'zbekiston, jonim to'shay
soyangga.
Senday mehribon yo'q,
Seningdek ko'rkam.
Rimni alishmasman
bedapoyangta.

Bu she'rda Muhammad Yusuf Vatan obrazini o'ziga xos poetik mahorat bilan yaratadi. "Ota makon", "onajon o'lka" kabi ifodalar orqali Vatanning inson hayotidagi eng muqaddas tushunchalar bilan uyg'un holda tasvirlanishi kuzatiladi. Ayniqsa, "jonim to'shay soyangga" degan misrada Vatanga nisbatan cheksiz sadoqat, fidoyilik va mehr tuyg'ulari badiiy ifodasini topgan. Shoir bu yerda jonini Vatan soyasiga to'shashga tayyorligini ifodalab, Vatan uchun fidoyilik g'oyasini ilgari suradi.

She'rda keltirilgan "Rimni alishmasman bedapoyangta" misrasi alohida e'tiborga loyiq. Bu yerda muallif qadimiy madaniyat va tamaddun ramzi bo'lgan Rimni o'z yurtining oddiy, xalqona timsoli — beda o'sayotgan zamin bilan qiyoslab, Vatanning go'zalligi va muqaddasligini ta'kidlaydi. Shoir uchun tuprog'idan beda o'sayotgan O'zbekiston – har qanday xorijiy go'zallik va sivilizatsiyadan ustun. Bu qarash Muhammad Yusuf ijodida ko'p uchraydigan xalqona poetik qarashning yorqin namunasi sanaladi.

Umuman olganda, ushbu she'rda Vatanning poetik obrazi samimiy tuyg'ular, xalqona tasvir vositalari va kuchli ichki lirizm orqali gavdalantirilgan bo'lib, u shoirning ma'naviy-estetik qarashlari, milliy g'urur va istiqlol ruhiga sodiqligini yaqqol ko'rsatadi.

Muhammad Yusuf o'z she'riyatida Vatanni faqatgina muqaddas zamin sifatida emas, balki ichki dunyosining ajralmas bir qismi, hayotining ma'naviy





negizi sifatida tasvirlaydi. Shoir uchun Vatan – bu eng aziz, eng muqaddas tushuncha bo'lib, uning timsolida g'urur, sharaf, kuch va go'zallik mujassam. Quyidagi misralar bu jihatlarni yuksak badiiylik bilan ifodalaydi:

Men dunyoni nima qildim,
O'zing yorug' jahonim.
O'zim xoqon, O'zim sulton
Sen taxti Sulaymonim.
Yolg'izim, Yagonam deymi,
Topingan koshonam deymi,
O'zing mening ulug'lardan
Ulug'imsan, Vatanim.

She'rda shoir dunyoni rad etgan holda, Vatanni barcha borliqlardan ustun qo'yadi. "Men dunyoni nima qildim" misrasi orqali u Vatanga nisbatan boshqa barcha moddiy ne'matlarning, hatto jahongashta sarkarda uchun ham arzimastligini bildiradi. "O'zing yorug' jahonim" degan ifoda Vatanni shoir qalbidagi yagona, yorug' va umidli makon sifatida talqin etadi.

Shoir Vatanni "taxti Sulaymon", ya'ni boylik, qudrat, donishmandlik va ruhiy yuksaklik ramzi bilan qiyoslaydi. Bu yerda Sulaymon taxti ramzining qo'llanilishi tasodifiy emas – u sharqona tafakkurda eng qudratli va ulug' hukmronlik timsoli sifatida qadrlanadi. Shoir esa bu timsolni Vatani bilan bog'laydi, uni o'zining eng oliy qadriyatiga aylantiradi.

"Yolg'izim, Yagonam deymi", "Topingan koshonam deymi" kabi misralarda shoirning Vatanga nisbatan dardli, samimiy va chuqur shaxsiy munosabati namoyon bo'ladi. Vatan bu yerda faqat siyosiy-ijtimoiy makon emas, balki qalb oromgohi, yagona suyanchiq va barhayot ma'naviy tayanch sifatida aks ettiriladi.

She'rning yakunidagi "O'zing mening ulug'lardan, Ulug'imsan, Vatanim" misralarida shoirdagi milliy iftixor eng yuksak darajada ifodalanadi. Bu satrlar Vatanni barcha qadriyatlarning markazi sifatida ko'rsatadi. Shoir Vatanga faqat muhabbat emas, balki ixlos, e'tiqod va sadoqat bilan qaraydi.

Muhammad Yusuf she'riyatidagi bu kabi obrazlar va badiiy vositalar shoirning Vatanni qalb orqali anglaganini, uni faqat ona zamin emas, balki insoniy kamolot manbai sifatida ko'rganini yaqqol namoyon etadi.

Xulosa o'rnida, Muhammad Yusuf ijodida Vatan obrazining poetik talqini o'zbek she'riyatida o'ziga xos yuksaklikka ega. Shoir Vatanni faqat geografik tushuncha emas, balki inson qalbining ajralmas bir bo'lagi, ruhiy tayanch va milliy iftixor manbai sifatida tasvirlaydi. Uning she'rlarida Vatan – ota-onaga qiyoslanadigan muqaddas zamin, insoniylik, sadoqat va g'urur timsoli sifatida gavdalanadi. Shoirning "Men dunyoni nima qildim, O'zing yorug' jahonim" kabi misralari orqali Vatanga bo'lgan cheksiz muhabbat, fidoyilik va sadoqat yuksak badiiylik bilan ifodalanadi. Muhammad Yusufning xalqona tili, samimiy lirizmi va kuchli obrazlar tizimi orqali yaratilgan Vatan tasviri o'zbek





adabiyotida milliy ruh va istiqlol g'oyalarining badiiy ifodasi sifatida alohida o'rin egallaydi. Uning she'rlari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan bo'lib, yosh avlodni Vatanga muhabbat, sadoqat va g'urur ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shukur Qurbon "Muhammad Yusuf yoki ustozdan o'zgan shogird". Toshkent., 2007 y.
2. Muhammad Yusuf "Ulug'imsan vatanim" she'riy to'plami. Toshkent, 2000.
3. Muhammad Yusuf "Saylanma" she'riy to'plami 2014.
4. Muhammad Yusuf "Shoir sevgisi" she'riy to'plami 2014
5. Ozod Sharafiddinov "Ijodni anglash baxti", Toshkent., 2002y

